

“AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK” SUG'URTA MAHSULOTI BO'YIHA TRANSPORT VOSITASIGA O'RNATILGAN GAZ-BALON USKUNASINI SUG'URTA QILISH OMMAVIY OFERTA

Ushbu Ommaviy Oferta (keyingi o'rinlarda “Oferta” deb yuritiladi) “MY-INSURANCE” Aksiyadorlik Jamiyati Sug'urta Tashkiloti tomonidan jismoniy va yuridik shaxslarning cheklanmagan doirasiga avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz-balon uskunasi «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» sug'urta mahsuloti bo'yicha, Ofertada ko'rsatigan shartlarda Sug'urtalovchi ning rasmiy veb-sayti yoki Internet xizmati (avtomatlashtirilgan axborot tizimi, mobil ilovasi) orqali sug'urtalash shartnomasini tuzish bo'yicha yo'naltirilgan taklifidir.

Ushbu Oferta sug'urta polisini rasmiylashtirish sanasida amalda bo'lgan «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» sug'urta mahsuloti bo'yicha transport vositasiga o'rnatilgan gaz-balon uskunalarini sug'urtalash Qoidalarini (keyingi o'rinlarda “sug'urta Qoidalarini” deb yuritiladi) bilan tartibga solinadi. Sug'urta Qoidalarini va ushbu Oferta <https://myinsurance.uz> rasmiy veb-saytida va Sug'urtalovchi ning Internet xizmatlarida mavjud.

Ushbu Oferta shartlarini qabul qilish va belgilangan sug'urta mukofotini to'lash, uning shartlarini akseptlash va Sug'urta qildiruvchining «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» mahsuloti uchun sug'urta shartnomasini tuzishga roziligi hisoblanadi. Sug'urta qildiruvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'langanligi fakti tasdiqlangach, unga «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» elektron sug'urta polisi yuboriladi va sug'urta shartnomasi tuzilgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasini Fuqarolik kodeksining 370-moddasiga muvofiq, ushbu Oferta shartlarini so'zsiz qabul qilish (aksept qilish) ommaviy Oferta shartlarini qabul qilish hisoblanadi va bu quyidagilarga:

- ushbu Oferta shartlari, shu jumladan unda ko'rsatilgan sug'urta shartlari bilan roziligini;
- sug'urta polisini shakllantirish uchun taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga, shu jumladan tizimlashtirish, saqlash, foydalanish, taqdim etish, tarqatishga, 5 yil muddatga sug'urta faoliyatini amalga oshirish maqsadida ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan yoki avtomatlashtirish vositalaridan foydalanmagan holda ishlov berish yo'li bilan uzatishga, shuningdek, ichki hujjat aylanishini ta'minlash bo'yicha sug'urta shartlariga ko'ra o'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarish uchun ularni uchinchi shaxslarga o'tkazishga roziligini ifodalaydi.

Agar sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan bo'lsa, shuningdek, Sug'urtalovchi tomonidan akseptni bekor qilish to'g'risidagi bildirishnoma akseptga qadar yoki u bilan bir vaqtda olingan bo'lsa, aksept olinmagan hisoblanadi.

"Sug'urta shartnomasi" va "Sug'urta polisi" atamalarini bundan keyin matnda ushbu elektron hujjatga nisbatan bir xil ma'noga ega.

OMMAVIY OFERTA

SHARTLARI ASOSIDA TUZILADIGAN "AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK" SUG'URTA MAHSULOTI BO'YICHA TRANSPORT VOSITASIGA O'RNATILGAN GAZ-BALON USKUNASINI SUG'URTALASH SHARTNOMASINING (SUG'URTA POLISINING) ASOSIY SHARTLARI 1-BO'LIM. ATAMALAR VA ULARNING TA'RIFLARI

1.1. Ushbu Ofertada quyidagi atamalar qo'llaniladi:

Sug'urtalovchi - O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq va Respublika Moliya vazirligi tomonidan berilgan litsenziya asosida sug'urta faoliyatini amalga oshiruvchi "MY-INSURANCE" aksiyadorlik jamiyati sug'urta tashkiloti.

Sug'urta qildiruvchi - «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» sug'urta mahsuloti bo'yicha avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz- balon uskunasi sug'urtalash Qoidalar shartlari bo'yicha Sug'urtalovchi bilan sug'urta shartnomasini tuzgan va belgilangan sug'urta mukofotini to'lagan muomalaga layoqatli jismoniy (O'zbekiston Respublikasi fuqarosi, fuqaroligi bo'lmagan shaxs yoki xorijiy davlatning shaxsi) yoki yuridik shaxs.

Haydovchi – gaz-balon uskunasi o'rnatilgan transport vositasini boshqarish huquqiga ega bo'lgan, gaz-balon uskunasi o'rnatilgan transport vositalaridan foydalanish qoidalar bilan tanishgan, belgilangan namunadagi haydovchilik guvohnomasiga va O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq rasmiylashtirilgan, umumiy egalik yoki ushbu transport vositasini tasarruf etish, egalik qilish va undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lgan, yoki unga tegishli bo'lmagan transport vositasini egasi yonida yoki transport vositasini tasarruf etish, egalik qilish va undan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjatga ega bo'lgan shaxs ishtirokida boshqargan shaxs.

Ariza so'rovnomasi – Sug'urtalovchi rasmiy veb-saytida yoki internet xizmatida sug'urta shartnomasini tuzish uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarini kiritish orqali real vaqt rejimida Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'ldiriladigan onlayn ariza shakli (elektron ariza). Elektron shaklda to'ldirilgan ariza shakli, agar u to'g'ri to'ldirilgan bo'lsa, sug'urta qilish uchun yozma arizaga tengdir.

Sug'urta qoidalar – Sug'urtalovchi tomonidan tasdiqlangan, Sug'urtalovchining ofislarida ko'rib chiqish, shuningdek <https://myinsurance.uz> rasmiy veb-saytida yoki internet xizmatlaridan yuklab olish orqali ko'rib chiqish uchun mavjud bo'lgan sug'urta shartlari bo'lib, sug'urta shartnomasi unga muvofiq tuziladi. Sug'urta Qoidalar shartlariga ko'ra, sug'urta shartnomasi Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga uning arizasi-so'rovnomada yoki og'zaki arizasi asosida sug'urta polisini berish yo'li bilan tuziladi.

Sug'urta polisi – Sug'urtalovchi tomonidan yozma yoki elektron shaklda berilgan, ushbu Oferta shartlari bo'yicha Sug'urta qildiruvchi va Sug'urtalovchi o'rtasida sug'urta shartnomasi tuzilganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polisi faqat unda ko'rsatilgan sug'urta muddati uchun amal qiladi va shartlashilgan sug'urta mukofoti o'z vaqtida to'langan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi – sug'urta muddati davomida va jug'rofiy hududda sodir bo'lgan sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqea.

Sug'urta voqeasi – ushbu Ofertada nazarda tutilgan sug'urta muddati davomida va jug'rofiy hududda ro'y bergan, Sug'urtalovchining Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) yoki Jabrlanuvchiga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatini yuzaga keltiruvchi haqiqatdagi voqea.

Sug'urta mukofoti – Sug'urta qildiruvchi ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatlarda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta summasi – sug'urta polisida ko'rsatilgan, har bir sug'urta hodisasi uchun pul summasi bo'lib, uning doirasida Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) yoki Jabrlanuvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Sug'urta davri – sug'urta qoplamasi amalda bo'lgan vaqt davri. Sug'urtalovchi sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati davomida sodir bo'lgan sug'urta hodisalar bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi.

Sug'urta tovon/ta'minoti – Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga) yoki Jabrlanuvchiga sug'urta polisida belgilangan sug'urta summalari doirasida ushbu Ofertada ko'rsatilgan sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi sababli zararni qoplash uchun to'lanadigan pul summasi.

Zarar (ziyon) - Sug'urta qildiruvchi yoki Jabrlanuvchining mol-mulk yoki hayot va sog'liqqa etkazilgan zararni qoplash uchun qilgan yoki amalga oshirishi kerak bo'lgan xarajatlari.

Avtotransport vositasi – sug'urta polisida ko'rsatilgan, sug'urtalangan gaz balon uskunasi o'rnatilgan avtotransport vositasi.

Gaz balon uskunasi – avtotransport vositasiga qo'shimcha ravishda o'rnatilgan yoki transport vositasining zavod uskunasi qiritilgan transport vositasi dvigatelinig siqilgan tabiiy, suyultirilgan neft gazlarida yoki dizel va gazsimon yoqilg'i aralashmasida ishlashini ta'minlaydigan maxsus jihoz.

Jabrlanuvchilar (uchinchi shaxslar) – gaz ballon uskunasi foydalanish jarayonida hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol- mulki shikastlangan (zarar) har qanday shaxslar, Sug'urta qildiruvchi, uning yaqin qarindoshlari (ota-onasi, eri (xotini), bolalari, aka-ukalari, opa-singillari) va xodimlari (Sug'urta qildiruvchi yuridik shaxs bo'lsa), haydovchi bundan mustasno.

Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish shartnomasi - (bundan keyin "majburiy sug'urta shartnomasi" deb yuritiladi) – O'zbekiston Respublikasining "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 iyundagi 141-son qarori bilan tasdiqlangan "Transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish to'g'risida"gi qoidalarida (keyingi o'rinlarda "Majburiy sug'urta qilish qoidali" deb yuritiladi) belgilangan tartibda, shuningdek, "Elektron turdagi sug'urta xizmatlarini ko'rsatish tartibini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2020 yil 14 dekabrda 780-son qaroriga muvofiq tuzilgan sug'urta shartnomasi.

Yo'l-transport hodisasi – transport vositasining yo'lda harakatlanishi paytida sodir bo'lgan, fuqarolarning o'limiga sabab bo'lgan yoki sog'lig'iga, transport vositalariga, inshootlariga, yuklariga zarar yetkazilgan yoki boshqa moddiy zarar yetkazilgan hodisa.

Geografik hudud – sug'urta polisi amal qiladigan hudud. Mazkur Oferta shartlariga ko'ra, geografik hudud O'zbekiston Respublikasi hududi hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma – Sug'urtalovchi tomonidan tuzilgan, sug'urta hodisasi yuz berganlik faktini tasdiqlovchi va sug'urta tovonining miqdorini belgilovchi hujjat. Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma Sug'urtalovchining, Sug'urta qildiruvchining vakolatli vakillari, shuningdek sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs tomonidan imzolandi.

Murojaat – Sug'urta qildiruvchining yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsning sug'urta hodisasi natijasida yetkazilgan zararga (ziyonga) ta'sir ko'rsatgan sabablar va holatlarni ko'rsatgan holda Sug'urtalovchi nomiga yozilgan arizasi. Murojaat tegishli ravishda ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan va yuzaga kelgan sug'urta hodisasiga qarab, ushbu Ofertaning 9.2-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni o'z ichiga olgan taqdirda to'liq qabul qilingan hisoblanadi.

1.2. Ushbu Ofertada foydalanilgan barcha ta'riflar Ofertada ular uchun belgilangan ma'noga ega. Ushbu Ofertadagi ta'rif (atama) uchun ma'no bo'lmagan taqdirda, ularning ma'nosi O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

2-BO'LIM. SUG'URTA SUB'EKTLLARI

2.1. Sug'urta sub'ektlari Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi, Naf oluvchi va Jabrlanuvchi hisoblanadi.

3-BO'LIM. SUG'URTA OB'EKTLLARI

3.1. Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchining, Haydovchining) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan, qonun hujjatlariga muvofiq gazbalon uskunasiidan foydalanish natijasida uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol- mulkiga etkazilgan zararni (zararni) qoplash majburiyati bilan bog'liq mulkiy manfaatlar sug'urta obyekti hisoblanadi.

4. BO'LIM. SUG'URTA HODISALARI VA SUG'URTA QOPLAMASI

4.1. Ushbu Ofertaga muvofiq jo'g'rofik hududda va sug'urta muddati davomida gaz ballon uskunasiidan foydalanish natijasida uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulkiga yetkazilgan zarar uchun Sug'urta qildiruvchining (Haydovchining) fuqarolik javobgarligini yuzaga kelishi hamda Sug'urtalovchining Jabrlanuvchilarga (uchinchi shaxslarga) sug'urta tovonini to'lash majburiyatini kelin chiqishi sug'urta hodisasi hisoblanadi.

5. BO'LIM. ISTISNOLAR

5.1. Ushbu Oferta doirasida quyidagilar oqibatida sodir bo'lgan hodisalar sug'urta hodisasi deb e'tirof etilmaydi:

a) a) transport vositasini har qanday mast (alkogolli, giyohvandlik va boshqalar) holatida, reaksiya va e'tibor tezligini pasaytiradigan dori vositalari ta'sirida, harakat xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan kasal yoki charchagan holatda boshqarish, shuningdek, transport vositasining haydovchisi voqea sodir bo'lganidan keyin tibbiy ko'rikdan o'tishdan bosh tortgan bo'lsa;

b) tegishli toifadagi haydovchilik guvohnomasi, transport vositasi egasining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urta qilish bo'yicha sug'urta polisi, Sug'urta qildiruvchining yozma ruxsatnomasi (ishonchnoma, yo'l varaqasi va boshqalar) va (yoki) haydovchining gaz-balon uskunasiidan foydalanish qoidalariga o'qitilganligini tasdiqlovchi hujjati (suyuq gaz bilan jihozlangan transport vositasini boshqarish (ishlatish) huquqini beruvchi guvohnomasi va boshqalari) bo'lmagan shaxs tomonidan transport vositasini boshqarilishi;

c) avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz-balon uskunasiining ishlab chiqaruvchisi yoki boshqa vakolatli organlari tomonidan belgilangan foydalanish shartlarini (yo'riqnomalar, qoidalar, ko'rsatmalar, nizomlar va boshqalar), yong'in xavfsizligi qoidalarini, yonuvchi va portlovchi moddalarni saqlash va tashish qoidalarini buzish;

d) avtotransport vositasiga texnik xizmat ko'rsatish qoidalariga rioya qilmaslik, gaz-balon uskunasiiga tegishli texnik xizmat ko'rsatish va tekshirishni o'z vaqtida o'tkazmaslik;

e) gaz-balon uskunasiini ishlab chiqaruvchining nuqsoni, shuningdek gaz-balon uskunasiining belgilangan

talablarga mos kelmasligi.

5.2. Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni tan oladi va rozi bo'ladi:

a) agar Sug'urta qildiruvchi (sug'urta polisi bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urta qilingan boshqa shaxs) Sug'urtalovchining yozma roziligisiz uchinchi shaxsga (uning merosxo'ri yoki xuquqiy vorisiga) gaz ballon uskunasi uchun ekspluatatsiyasi natijasida yetkazilgan zararining o'rnini har qanday tarzda qoplagan yoki qoplashga va'da bergan bo'lsa, u holda Sug'urta qildiruvchining (fuqarolik javobgarligi sug'urta polisi bo'yicha sug'urtalangan boshqa shaxs) bu harakatlari Sug'urtalovchi uchun majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi;

b) Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, yetkazilgan zararni bartaraf etishda, da'volar va talablarni ko'rib chiqishda, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar va (yoki) moddiy zararni ko'zdan kechirish dalolatnomasini tuzishda, Jabrlanuvchilar bilan bitimlar tuzishda, huquqni muhofaza qilish organlarida, sud va boshqa vakolatli organlarga qarshi da'voni tayyorlashda Sug'urta qildiruvchining manfaatlarini ifodalash uchun yozma ishonchnoma beradi;

c) Sug'urtalovchi, agar o'zi maqsadga muvofiq deb hisoblasa, Jabrlanuvchi bilan hayoti va sog'lig'iga yetkazilgan zarar va/yoki moddiy zarar to'g'risidagi da'voni hal qilish va sug'urta tovonini to'lash masalasida bevosita o'zaro hamkorlik qiladi;

d) Sug'urta qildiruvchi (jismoniy shaxs) vafot etgan taqdirda Sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari transport vositasini meros qilib olgan shaxsga o'tadi.

5.3. Agar Sug'urta qildiruvchi (sug'urta polisi bo'yicha fuqarolik javobgarligi sug'urtalangan boshqa shaxs) Sug'urtalovchi bilan oldindan kelishgan holda Jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni o'z hisobidan qoplagan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga (fuqarolik javobgarligi sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qilingan boshqa shaxs) zararni qoplash tartibida o'z hisobidan to'lagan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlarni taqdim etgandan so'ng sug'urta tovonini to'laydi. Sug'urta qildiruvchi (fuqarolik javobgarligi sug'urta polisi bo'yicha sug'urta qilingan boshqa shaxs) o'z hisobidan yetkazilgan zararni qisman qoplagan bo'lsa, Sug'urtalovchi Sug'urta qildiruvchiga (fuqarolik javobgarligi sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta qilingan boshqa shaxs) sug'urta tovonining tegishli qismini, qolganini esa Jabrlanuvchiga (uning merosxo'riga) to'laydi.

5.4. Sug'urta qildiruvchi tomonidan yetkazilgan zararni qoplash uchun amalga oshirgan to'lovlarni tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

Sug'urta qildiruvchi - yuridik shaxslar uchun - to'lov to'g'risidagi bank belgisi bilan to'lov topshiriqnomasining nusxasi;

Sug'urta qildiruvchi - jismoniy shaxslar uchun - Jabrlanuvchining (uning merosxo'ri yoki xuquqiy vorisi) imzo qo'yilgan yoki yuridik shaxsning sug'urta tovonini olganligi to'g'risidagi yozma tasdig'i. Bunda:

yuridik shaxsning yozma tasdig'i ushbu yuridik shaxs rahbarining imzosi va muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak;

Jismoniy shaxsning tilxati notarial tasdiqlangan bo'lishi kerak, tilxat jismoniy shaxs tomonidan Sug'urtalovchining xodimi huzurida pasport/shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki shaxsini tasdiqlovchi fotosurati bo'lgan boshqa hujjat ko'rsatilgan holda yoziladigan hollar bundan mustasno.

5.5. Jabrlanuvchi tomonidan (uning merosxo'rlarining) uning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararining o'rnini qoplash uchun boshqa manbalardan olgan to'lovlari Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlarini kamaytirmaydi.

6. BO'LIM. SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI, SUG'URTA MUKOFOTINI TO'LASH TARTIBI

6.1. Sug'urta ob'ekti bo'yicha sug'urta puli tomonlarning kelishuvi bilan belgilanadi va real vaqt rejimida Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida yoki mobil ilovasida hamda sug'urta polisida ko'rsatiladi.

6.2. Sug'urta mukofotining miqdori sug'urta ob'ektini, sug'urta xavfining xususiyatini, sug'urta muddatini va sug'urta majburiyatlarining hajmini hisobga olgan holda Sug'urtalovchi tomonidan ishlab chiqilgan bazaviy sug'urta tariflari (sug'urta mukofoti stavkalari) asosida hisoblanadi.

6.3. Sug'urta mukofoti summasi real vaqt rejimida Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida yoki mobil ilovasida ko'rsatiladi va Sug'urta qildiruvchi tomonidan to'lov tizimi operatorlari yordamida Sug'urtalovchining hisobvarag'iga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan bir vaqtning o'zida to'lanadi.

7. BO'LIM. SUG'URTA POLISINING KUCHGA KIRISHI VA AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Sug'urta muddati (davri) sug'urta polisida belgilanadi va 1 yildan ortiq muddatga belgilanishi mumkin emas.

7.2. Sug'urta polisi Sug'urta qildiruvchi sug'urta mukofotini to'liq to'lagan paytdan e'tiboran kuchga kiradi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati tugagunga qadar amal qiladi.

7.3. Sug'urta davri sug'urta mukofoti to'langan kunning keyingi kunidan boshlanadi va sug'urta davrining tugash sanasigacha (har ikkala sanani ham hisobga olgan holda) davom etadi.

7.4. Sug'urta polisi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

a) sug'urta davri tugaganda;

b) Sug'urtalovchi tomonidan o'z majburiyatlari to'liq bajarganda;

c) O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, sug'urta Qoidalari va Ofertada nazarda tutilgan boshqa hollarda.

7.5. Sug'urta polisi, agar u kuchga kirganidan keyin sug'urta hodisasi ehtimoli yo'qolgan bo'lsa va sug'urta xavfi sug'urta hodisasidan boshqa holatlar tufayli to'xtagan bo'lsa, u tuzilgan muddatdan oldin bekor bo'ladi.

7.6. Agar Sug'urta qildiruvchi mazkur Ofertaning 7.5-bandida ko'rsatilgan holatlar bo'yicha Sug'urta polisidan muddatidan oldin voz kechsa, Sug'urtalovchi sug'urta mukofotini muddati o'tmagan sug'urta davriga mutanosib ravishda, qaytarilishi lozim bo'lgan sug'urta mukofotining 25 foizigacha miqdorda Sug'urtalovchining ishni yuritishga sarflagan xarajatlari ushlab qolinganda qaytariladi.

7.7. Sug'urta qildiruvchi tomonidan 7.5-bandda ko'rsatilgandan tashqari holatlar tufayli sug'urta polisi muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

8. BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

8.1. Ushbu Oferta doirasida, sug'urta polisining amal qilish muddati davomida:

a) **Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) va Jabrlanuvchilar quyidagi huquqlarga ega:**

- ushbu Oferta va sug'urta Qoidalari doirasida Sug'urtalovchidan maslahat olish;
- sug'urta hodisasi yuz berganda Sug'urtalovchidan sug'urta Qoidalari va sug'urta polisi bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va miqdorda bajarilishini talab qilish.

b) **Sug'urta qildiruvchi (Naf oluvchi) quyidagi majburiyatlarga ega:**

• gaz-balon uskunasi xavfsiz ishlashini, texnik ko'rikdan o'tkazish talablariga muvofiqligini, foydalanilayotgan gaz- balon uskunasi ishonchliligi va xavfsizligini ta'minlash;

- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va o'z vaqtida gaz-balon uskunalarini davriy texnik ko'rikdan o'tkazish;
- avtotransport vositalari va gaz-balon uskunalarini ishlatish va ularga texnik xizmat ko'rsatish bo'yicha ko'rsatmalarga (qoidalarga, qo'llanmalarga) rioya qilish;
- transport vositasini boshqarishga ruxsat berilgan shaxslar e'tiboriga ushbu Oferta shartlari va talablarini yetkazish;

• sug'urta polisini rasmiylashtirishda va amal qilish muddati davomida Sug'urtalovchiga xavf darajasiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun muhim bo'lgan ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish;

- ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatlarda sug'urta mukofotini to'lash;
- sug'urta polisining amal qilish muddati davomida sug'urta hodisasi yuzaga kelishi ehtimolini oshiradigan xavf darajasi va holatlarining sezilarli o'zgarishi to'g'risida Sug'urtalovchini xabardor qilish;

• Sug'urtalovchiga yoki uning vakillariga istalgan vaqtda transport vositasini va uning qismlarini ko'rikdan o'tkazish imkoniyatini berish;

• sug'urta hodisasi yuzaga kelishini oldini olish uchun unga bog'liq bo'lgan barcha choralarni ko'rish. Sug'urtalovchiga da'vo qo'yish uchun asos bo'lishi mumkin bo'lgan hodisalar yuzaga kelganda, uning sodir bo'lganligi to'g'risida ushbu Ofertada belgilangan muddatlarda va tartibda xabardor qilish;

• Sug'urtalovchiga ushbu Oferta bo'yicha Sug'urtalovchining majburiyatlari yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin bo'lgan sug'urta hodisasining sabablari va oqibatlarini baholash imkonini beruvchi barcha ma'lumotlar va hujjatlarni taqdim etish;

• sug'urta hodisasi munosabati bilan Sug'urtalovchining ham, Sug'urta qildiruvchining ham manfaatlarini himoya qilish uchun o'z advokatini yoki boshqa vakolatli shaxsni tayinlash zarur deb hisoblasa, Sug'urtalovchi ko'rsatgan shaxslarga ishonchnoma va boshqa hujjatlarni berish;

• sug'urtalovchi sug'urta hodisasi munosabati bilan Sug'urtalovchining ham, Sug'urta qildiruvchining ham manfaatlarini himoya qilish uchun o'z advokatini yoki boshqa vakolatli shaxsni tayinlash zarur deb hisoblasa, Sug'urtalovchi tomonidan ko'rsatilgan shaxslarga ishonchnoma va boshqa hujjatlarni berish;

• Sug'urtalovchining roziligrisiz yoki sud qarorisiz zararni to'lamaslik, zararni qoplash qoplash da'volari bo'yicha o'z javobgarligini qisman yoki to'liq tan olmaslik, shuningdek bunday da'volarni hal qilish bo'yicha bevosita yoki bilvosita majburiyatlarni o'z zimmasiga olmaslik;

• Sug'urtalovchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish, Sug'urta qildiruvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat organlari va boshqa tashkilotlarga axborot taqdim etishga majbur bo'lgan hollar bundan mustasno.

c) **Sug'urtalovchi quyidagi huquqlarga ega:**

• Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxsdan ushbu Oferta va sug'urta Qoidalari bo'yicha majburiyatlarni bajarishni talab qilish;

• sug'urta hodisasi xavfi darajasini tavsiflovchi qo'shimcha hujjatlarni talab qilish. Xavf darajasi o'zgargan taqdirda sug'urta mukofotining miqdori vaziyatga qarab yuqoriga yoki pastga qarab qayta ko'rib chiqilishi mumkin. Sug'urta qildiruvchi sug'urta polisi shartlarini o'zgartirishga yoki sug'urta mukofotini qo'shimcha to'lashga e'tiroz bildirgan taqdirda, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sug'urta polisining amal

qilishini tugatishni (bekor qilishni) talab qilishga haqli;

- Sug'urta qildiruvchi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni, shuningdek, Sug'urta qildiruvchi tomonidan ushbu Oferta shartlari va sug'urta Qoidalariga muvofiqligini tekshirish;

- Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta Qoidalari bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda to'lovdan bosh tortish.

d) **Sug'urtalovchi quyidagi majburiyatlarga ega:**

- sug'urta mukofoti to'langanidan keyin Sug'urta qildiruvchiga sug'urta polisini rasmiylashtirish (yuborish);
- sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta tovonini Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchiga, Jabrlanuvchiga) yoki foydasiga sug'urta polisi berilgan boshqa shaxsga ushbu Ofertada belgilangan tartibda va muddatlarda to'lash;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Sug'urta qildiruvchidan olingan ma'lumotlarning maxfiyligiga rioya qilish.

9-BO'LIM. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TO'G'RISIDAGI ARIZANI KO'RIB CHIQISH

9.1. Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda, Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs quyidagilarga majburdir:

a) darhol, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan kundan boshlab 3 (uch) kalendar kundan kechiktirmay, bu haqda Sug'urtalovchini har qanday mavjud usulda (sug'urta polisida ko'rsatilgan telefon raqami, elektron pochta, faks orqali va boshqalar) xabardor qilish;

b) voqea sodir bo'lgan joyda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bayonnoma yoki boshqa hujjat tuzgan holda vakolatli organlarga (Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Ichki ishlar boshqarmasi va boshqalar) darhol xabar berish;

c) ushbu Ofertaning 4.1-bandida ko'rsatilgan hollarda Sug'urtalovchiga voqea sodir bo'lgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida yetkazilgan zarar (zarar)ga ta'sir ko'rsatgan sabablar va holatlarni ko'rsatgan holda murojaat yuborish.

9.2. Sug'urta qildiruvchi yoki sug'urta tovonini olish huquqiga ega bo'lgan boshqa shaxs sug'urta hodisasi yuz berganligi to'g'risidagi arizaga quyidagi hujjatlarni ilova qilishi kerak:

Hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan va (yoki) uchinchi shaxslarga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda: Sug'urta qildiruvchidan quyidagilar talab etiladi:

- a) sug'urta polisi (qog'oz shaklda berilgan bo'lsa);
- b) gaz-balon uskunasi o'rnatish to'g'risidagi vakolatli organning belgisi bilan avtotransport vositasini ro'yxatdan o'tkazish guvohnomasining (texnik pasport) nusxasi;
- c) gaz-balon uskunasi texnik ekspertizasi to'g'risidagi hujjatning nusxasi (sinov bayonnomasi va boshqalar);
- d) avtotransport vositasiga gaz-balon uskunasi o'rnatish (qayta jihozlash) to'g'risidagi dalolatnoma nusxasi;
- e) gaz yoqilg'isida ishlashga o'tkazilgan avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz-balon uskunasi sertifikatlashtirish organi tomonidan berilgan muvofiqlik sertifikatining nusxasi;
- f) voqea munosabati bilan Sug'urta qildiruvchi tomonidan olingan hujjatlarning nusxasi (Jabrlanuvchining (uchinchi shaxsning)) da'vo arizasi, xatlar, qo'ng'iroqlar va boshqalar);
- g) Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchining) shaxsini tasdiqlovchi pasporti yoki boshqa hujjatning nusxasi (Sug'urta qildiruvchi - jismoniy shaxs uchun);
- h) hodisaning holatlarini tekshirishga vakolatli organlarning (yo'l harakati xavfsizligi organlari, yong'in xavfsizligi organlari, Favqulodda vaziyatlar vazirligi) hujjatli dalillari (qaror, ma'lumotnoma), O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

Jabrlanuvchidan quyidagilar talab etiladi:

- a) uchinchi shaxsning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilganda sud-tibbiy ekspertiza xulosasining nusxasi;
- b) Jabrlanuvchining (uchinchi shaxslarning) shaxsini tasdiqlovchi hujjatlari;
- c) Sug'urta qildiruvchi tomonidan Jabrlanuvchiga ushbu Oferta shartlarida nazarda tutilgan fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganligi sababli etkazilgan zararni (zararni) to'lash to'g'risidagi sudning qonuniy kuchga kirgan qarori;
- d) baholovchi tashkilot tomonidan tuzilgan moddiy zararni baholash hisobotining asl nusxasi (uchinchi shaxslarning mol- mulkiga jismoniy zarar yetkazilganda).

9.3. Zarur bo'lganda, sug'urta hodisaning holatlarini aniqlash uchun Sug'urtalovchi sug'urta hodisasiga taalluqli boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli.

9.4. Sug'urta voqeasi bilan bog'liq barcha holatlarni o'rganib chiqqandan so'ng, Sug'urtalovchi sug'urta voqearni sug'urta hodisasi deb tan olish yoki tan olmaslik to'g'risida qaror qabul qiladi.

Sug'urtalovchi sug'urta voqearni sug'urta hodisasi deb tan olgan taqdirda, to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta tovon miqdori belgilanadi va bu sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi.

9.5. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Sug'urta qildiruvchiga (Naf oluvchi)

Sug'urtalovchi tomonidan talab qilingan barcha zarur hujjatlarni taqdim etgan holda sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizasi berilgan kundan boshlab 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay xabardor qilinishi va rad etish javobini asoslantirilgan ma'lumotni o'z ichiga olishi kerak.

10-BO'LIM. SUG'URTA TOVONINI TO'LASH TARTIBI

10.1. Sug'urta tovonini quyidagi tartibda to'lanadi:

a) Sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxslarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazganligi uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelgan taqdirda, sug'urta tovonining miqdori majburiy sug'urta shartnomasiga asosan (majburiy sug'urta qoidalariga 7- ilova*) Jabrlanuvchining hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zararni qoplash uchun to'lovlar jadvaliga muvofiq aniqlanadi.

Uchinchi shaxsning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilganda sug'urta tovonining miqdori "Fuqarolik javobgarligi" xavfi bo'yicha belgilangan va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasining 65 foizidan oshmasligi kerak. Bir necha shaxslarning hayoti va sog'lig'iga zarar yetkazilgan taqdirda, har bir Jabrlanuvchi (uning merosxo'ri, uchinchi shaxs) uchun sug'urta tovonining miqdori har bir uchinchi shaxsning hayoti yoki sog'lig'iga yetkazilgan zarar darajasiga mutanosib ravishda, sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasini 65 foizi doirasida belgilanadi.

b) Sug'urta qildiruvchining uchinchi shaxsga moddiy zarar yetkazganlik uchun fuqarolik javobgarligi yuzaga kelganda, Sug'urta qildiruvchi tomonidan uchinchi shaxsga yetkazgan moddiy zarar miqdorida (yoki Sug'urta qildiruvchiga sud qarori bilan belgilangan), ammo sug'urta polisida "Fuqarolik javobgarligi" xavfi uchun belgilangan va ko'rsatilgan sug'urta summasidan oshmagan holda.

Uchinchi shaxsning mol-mulkiga zarar yetkazilganda sug'urta tovonining miqdori sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasining 35 foizidan oshmasligi kerak. Bir nechta uchinchi shaxslarning mol-mulkiga zarar yetkazilgan taqdirda, har bir Jabrlanuvchi (uning merosxo'ri, uchinchi shaxs) uchun sug'urta tovonining miqdori uchinchi shaxsning mol-mulkiga yetkazilgan zarar darajasiga mutanosib ravishda, sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta summasini 35 foizi doirasida belgilanadi.

Shu bilan birga, sug'urta muddati va geografik hudud doirasida tegishli sug'urta tashkilotining majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha uchinchi shaxslarga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqaradigan yo'l-transport hodisasi, yong'in va (yoki) portlashi natijasida uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i va (yoki) mol-mulki zarar etkazilgan taqdirda, sug'urta tovonini to'lovi etkazilgan zarar miqdorida, majburiy sug'urta shartnomasi hisobidan uchinchi shaxsga to'langan tovon (kompensatsiya to'lovlari) ayrib tashlangan holda amalga oshiriladi.

Sug'urtalovchining mol-mulkka yetkazilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lash majburiyati ixtiyoriy va majburiy sug'urta shartnomalari bo'yicha yuzaga kelsa, birinchi navbatda, sug'urta tovonini majburiy sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanadi, mulkka yetkazilgan zararining qoplanmagan qismi ixtiyoriy sug'urta shartnomasi bo'yicha qoplanadi. Bunda ixtiyoriy va majburiy sug'urta bo'yicha to'langan sug'urta tovonining umumiy miqdori Jabrlanuvchining mol-mulkiga yetkazilgan haqiqiy zarardan oshmasligi kerak.

10.2. Sug'urtalovchi sug'urta voqeasini sug'urta hodisasi deb tan olingan taqdirda, Sug'urtalovchi 5 (besh) bank ish kuni ichida sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzadi, unda sug'urta hodisasi, sug'urta tovonining miqdori va tovon summasini oluvchilar aniqlanadi. Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi va Jabrlanuvchining vakillari tomonidan imzolalanadi.

10.3. Sug'urta tovonini to'lovi sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tomonlar o'zaro imzolangan kundan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida Sug'urta qildiruvchining (Naf oluvchining, Jabrlanuvchining) bank (shaxsiy) hisob raqamiga pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

10.4. Sug'urtalovchi tomonidan ushbu Ofertada nazarda tutilgan zararni (zararni) qoplash uchun amalga oshirilgan har bir to'lov, agar dastlabki sug'urta summasini tiklash uchun qo'shimcha sug'urta mukofoti to'lanmagan bo'lsa, sug'urta summasini shunday to'lov miqdoriga kamaytiradi.

11-BO'LIM. MAXSUS SHARTLAR

11.1. Quyidagilar natijasida yuzaga kelgan voqealar sug'urta hodisalari deb tan olinmaydi:

a) har qanday turdagi harbiy harakatlar, harbiy maxsus operatsiyalar, manevrlar yoki boshqa harbiy harakatlar, fuqarolar urushi yoki ularning oqibatlari, terrorizm aktlari, fuqarolik tartibsizliklari, ish tashlashlar, lokautlar, harbiy yoki fuqarolik organlarining buyrug'i bilan mulkning, jumladan sug'urtalangan gaz uskunasi musodara, rekvizitsiya qilinishi, olib qo'yilishi, yo'q qilinishi, yadroviy portlash, radiatsiya yoki radioaktiv va/yoki zaharli ifloslanish ta'sirida;

b) sug'urta hududi (joyidan) yoki sug'urta muddatidan tashqarida sodir bo'lgan voqealar, shuningdek sug'urta hodisasi hisoblanmaydigan voqealar.

11.2. Quyidagi hollar sug'urta hodisasi hisoblanmaydi va Sug'urtalovchi hech qanday to'lovlarni amalga oshirmaydi, agar:

a) Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini tuzish (sug'urta polisini berish) to'g'risida qaror qabul qilgan ma'lumotlarni taqdim etgan holda, sug'urta hodisasi to'g'risida qaror qabul qilish uchun muhim bo'lgan holatlar to'g'risida noto'g'ri ma'lumot bergan bo'lsa;

b) Sug'urta qildiruvchi ushbu Oferta va sug'urta Qoidalariga muvofiq o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini buzgan bo'lsa;

c) Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, zarar fakti va miqdorini aniqlashga imkon beruvchi hujjatlarni taqdim etmasa;

d) Sug'urta qildiruvchi etkazilgan zarar uchun boshqa shaxslardan (jumladan, aybdorlardan) qoplamani to'liq olganda, shuningdek, ushbu Oferta va Sug'urta qoidalarida ko'zda tutilgan o'z majburiyatlarining bajarilishini ta'minlamasa.

11.3. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan bilvosita va boshqa Sug'urta qildiruvchining xarajatlari (jarimalar, sud yoki xizmat safari xarajatlari, boy berilgan foyda, ishlamay qolgan vaqtlar, moddiy yo'qotishlar, ma'naviy zarar va boshqalar) uchun javobgar bo'lmaydi.

11.4. Sug'urtalovchi ushbu Ofertada ko'rsatilmagan va/yoki ko'zda tutilmagan har qanday hodisalar uchun javobgar emas.

11.5. Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni tan oladi va rozilik beradi:

a) Sug'urtalovchining talabiga ko'ra, yetkazilgan zararni bartaraf etishda, da'volar va talablarni ko'rib chiqishda, hayot va sog'liqqa yetkazilgan zarar va (yoki) moddiy zararni ko'zdan kechirish dalolatnomalarini, Jabrlanuvchilar bilan bitimlar tuzishda, huquqni muhofaza qilish organlarida, sud va boshqa instansiyalarga qarshi da'voni tayyorlashda Sug'urta qildiruvchining manfaatlarini ifodalash huquqiga yozma ishonchnoma berishga;

b) Sug'urta qildiruvchi - jismoniy shaxs vafot etgan taqdirda, Sug'urta qildiruvchining sug'urta polisi bo'yicha huquq va majburiyatlari transport vositasini meros qilib olish tartibida qabul qilgan shaxsga o'tadi. Avtotransport vositasiga egalik huquqi o'tgan boshqa hollarda Sug'urta qildiruvchining huquq va majburiyatlari yangi egasiga o'tmaydi va shunga ko'ra sug'urta tugatiladi. Bunday holda, to'langan sug'urta mukofoti qaytarilmaydi.

11.6. Sug'urtalovchi quyidagilarni qoplab bermaydi:

a) gaz-balon uskunasi va u o'rnatilgan transport vositasiga bevosita yetkazilgan zarar, gaz-balon uskunasi saqlash qoidalarini buzish (korroziya va boshqalar) natijasida yetkazilgan zarar.

b) Sug'urta qildiruvchining transport vositasi va gaz ballon jihozlarini o'zgartirish va (yoki) takomillashtirish bilan bog'liq xarajatlari.

12-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

12.1. «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» mahsuloti bo'yicha sug'urta polisining boshqa shartlari «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» sug'urta mahsuloti bo'yicha avtotransport vositasiga o'rnatilgan gaz-balon uskunasi sug'urta Qoidalar bilan belgilanadi.

12.2. O'z zimmlariga olgan majburiyatlarni bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

12.3. Polis va ushbu Ofertada nazarda tutilgan yoki ular bilan bog'liq masalalar bo'yicha, shu jumladan ularni bajarish va buzish bilan bog'liq nizolar, da'volar yoki kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda, tomonlar ularni muzokaralar yo'li bilan hal qilish choralarini ko'radilar.

12.4. Agar tomonlar muzokaralar orqali tinch yo'l bilan kelishmasa, Sug'urta shartnomasi (Polisi) tuzilishi (rasmiylashtirilishi), o'zgarishi, tugatilishi, bekor bo'lishi, haqiqiy emasligi, tuzilmaganligi (to'liq yoki qisman) bilan yuzaga kelgan yoki kelib chiqadigan barcha nizolar, kelishmovchiliklar, talablar va da'volar Sug'urtalovchining ixtiyori bilan fuqarolik ishlarining sudga taalluqliligi va sudlovga tegishililigi muvofiq O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga ko'ra Sug'urtalovchining davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyidagi sud tartibida yohud Hakamlik sudi to'g'risidagi Reglamentga, Hakamlik sudi to'g'risidagi Nizomga va Hakamlik sudida taraflarning hakamlik yig'imi, xarajatlari va chiqimlari to'g'risida Nizomga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahri Savdo-sanoat Palatasi huzuridagi Hakamlik sudida (keyinchalik Hakamlik sudi), uning yakka tartibda hal qiluvchi hakamlik sudyasi reglamentiga ko'ra hal etiladi. Da'vo arizasi bilan tumanlararo iqtisodiy sudiga yoki Hakamlik sudiga murojaat qilishni tanlash huquqi Sug'urtalovchida qoladi.

12.5. "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq, Tomonlar ushbu Oferta doirasida elektron shaklda tuzilgan barcha hujjatlarning (ariza anketasi, sug'urta polisi, hisob-varaqa, dalolatnoma, ma'lumotlar, hujjatlar va boshq.), ularni qog'ozdagi hujjatlarga tenglashtirgan, qo'l bilan imzolangan va tegishli Tomonning muhri bilan tasdiqlangan, agar ushbu elektron hujjatlar Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra elektron hisob-varaqlar aylanmasi tizimining operatorlaridan biri (ushbu faoliyat bilan shug'ullanish uchun ruxsat olgan axborot vositachisi) tomonidan qayta ishlangan va yuborilgan bo'lsa, barcha hujjatlarning yuridik kuchini kelishib oladilar va tan oladilar.

12.6. "MY-INSURANCE" AJ STning internet axborot tarmog'idagi rasmiy sayti: <https://myinsurance.uz>. Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti Sug'urta qildiruvchi va ushbu axborot tizimining operatori bo'lgan Sug'urtalovchi o'rtasida elektron shaklda ma'lumotlar almashinuvi, shu jumladan sug'urta shartnomasini tuzish uchun ariza yuborishni ta'minlash, shartnoma tuzish (sug'urta polisini yuborish), o'zgartirish, muddatidan oldin bekor qilish, sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi to'g'risida xabar berish, sug'urta tovonini to'lash to'g'risidagi arizalar, ko'rib chiqish bosqichi va natijalari



✉ info@myinsurance.uz

📍 Toshkent sh. Kichik Mirobod 95

☎ +998 95 341-20-20

+998 71 205-19-19

to'g'risida ma'lumot yuborish, sug'urta to'lovi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot tizimi hisoblanadi.

Sug'urta hodisasi belgilariga ega bo'lgan voqealar yuz bergan taqdirda, saytda ko'rsatilgan telefon orqali voqea haqida xabar berishingiz yoki "MY-INSURANCE" AJ STning eng yaqin ofisiga (filialiga) murojaat qilishingiz lozim.

Filiallarning manzillari, telefonlari va ish vaqti Sug'urtalovchining rasmiy veb-saytida ko'rsatilgan.

Manzil: 100015, Toshkent sh., Kichik Mirobod ko'chasi, 95

Bank nomi: O'ZR TIF "MILLIY BANK" SAYOHAT FILIALI

Bank kodi: 00450

Bank h/r.: 20208000104786066001

XXTUT: 96220

STIR: 207002342

Rasmiy internet sayti: <https://myinsurance.uz>

Elektron pochta: info@myinsurance.uz

**ПУБЛИЧНАЯ ОФЕРТА
НА СТРАХОВАНИЕ ГАЗОБАЛЛОННОГО ОБОРУДОВАНИЯ, УСТАНОВЛЕННОГО НА
АВТОТРАНСПОРТНОЕ СРЕДСТВО ПО СТРАХОВОМУ ПРОДУКТУ «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK»**

Настоящая Публичная oferta (далее – «Oferta») является адресованным неопределенному кругу физических и юридических лиц предложением Акционерного общества страховой компании «MY-INSURANCE» заключить договор страхования газобаллонного оборудования, установленного на автотранспортное средство по страховому продукту «AVTO GAZBALLON JAVOBGARLIK» на условиях, указанных в Oferte посредством официального сайта или интернет сервиса (мобильного приложения, автоматизированной информационной системы) Страховщика.

